

## YAPON TILIDAGI O‘XSHATISHLARDAGI AYYORLIK ETALONLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10364343>

**Adiba HATAMOVA,**

TDSHU magistranti, Toshkent, O‘zbekiston

Tel: +99893 880-59-51;

***Annotatsiya.** Ushbu maqola ushbu yapon tilidagi mavjud o‘xshatishlar tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda yapon o‘xshatish birliklaridagi mavjud ayyorlik etalonlari haqida so‘z yuritiladi. Bundan tashqari ularning ishlatilish holatlariga va kelib chiqish tarixiga izoh beriladi. Salbiy va ijobiy ma‘nolariga misollar keltiriladi.*

***Kalit so‘zlar:** yapon lingvomadaniyatidagi o‘xshatishlar, yavvoyi hayvon, ayyorlik obrazi, ijobiy va salbiy obraz.*

***Аннотация.** Данная статья посвящена изучению существующих сравнений в японском языке, рассказывается о существующих нормах лукавства в японских сравнительных единицах, а также комментируется их употребление и происхождение, приводятся примеры отрицательного и положительного значения данной*

***Ключевые слова:** сравнения в японской языковой культуре, дикие животные, хитрые образы, положительный и отрицательный образ.*

***Abstract.** This article is devoted to the study of existing similes in the Japanese language, it talks about the existing standards of slyness in Japanese simile units, and also comments on their usage and origin. Examples of negative and positive meanings are given.*

***Key words:** Similes in Japanese language culture, wild animals, cunning images, positive and negative images*

So‘zimiz boshini mashhur rus tilshunosi G.O.Vinokurning “Tilni o‘rganayotgan har qanday tilshunos, albatta tanlagan tili uning mahsuloti bo‘lgan o‘sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi”[1] degan fikrlari bilan boshlashni lozim topdik. Negaki uning bu qarashlari lingvomadaniyat fani doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar doirasida qayta-qayta tasdiqini topmoqda. Negaki yolg‘iz tilni o‘rganish bilan mukammal gapirish yoki o‘sha til egalarining nutqini to‘liq tushunish imkonsiz. Shu boisdan ham madaniyatni yaxshi anglash kerak. Bu yo‘lda esa o‘xshatishlar eng yaxshi yordamchiga aylanadi negaki, Har bir mamlakat va millat o‘z tafakkuri, qadriyatleri va dunyoqarashi va geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda o‘z tilida o‘xshatishlarni yaratadi va muloqot jarayonida keng qo‘llaydi. Shu jihatdan

o‘xshatishlar har bir millatning “dastxati” vazifasini o‘taydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yapon tilidagi o‘xshatishlar o‘zbek tilidagi o‘xshatishlar bilan shakl jihatdan o‘xshash hisoblanadi. Biroq ularning ichki olami ya’ni mazmuniga nazar soladigan bo‘lsak, bir- biridan anchagina farqli taraflari mavjud. Buning sababi esa bu ikki xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, e’tiqodi va eng muhimi ularning yashash hududidan kelib chiqib yaratilganligidadir. O‘xshatishlardagi madaniy farqlar uning tarkibidagi so‘zlar milliy elementlarning nomlarini aks ettirganda yoki o‘sha xalqning flora yoki fauna nomlari mavjudligida, bundan tashqari iqlim sharoitiga xos so‘zlarning mavjudligida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, クジラのようなちさい目 “kujiranoyouna chisai me” kitniki kabi kichik ko‘zlar o‘xshatishida ham yaponlarning o‘ziga xosligi aks etgan. Bunga sabab bu yerda nomi keltirilgan kit asosan dengiz yoki okeanlarga yaqin hududlarda yashovchilar uchun yaxshi tanish. O‘zbek lingvomadaniyatida esa kichkina ko‘zga nisbatan bodomga o‘xshash yoki ko‘zi qirg‘iynikidek kabi birliklar ishlatiladi. Insonning tashqi qiyofasidagi bir xil jihat uchun qo‘llaniladigan ushbu ikki xil madaniyatga tegishli bo‘lgan birliklar yapon va o‘zbek millati haqida tasavvur uyg‘ota oladi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, Yaponiya orol davlat hisoblanganligi bois suv hayvoni kit butun xalq uchun tanish va ular bu hayvonning tashqi qiyofasini yaxshi bilgan holda bu o‘xshatishni oson qabul qilishadi. Dengiz va okeanlardan yiroqda bo‘lgan o‘zbek xalqi uchun eng keng tarqalgan mevalardan biri hisoblangan bodom esa barcha uchun birdek tanish va uning shakli-shamoyili hammaga ma’lum. Shuning uchun ham ko‘zning bu mevaga o‘xshatilganligi barchaga birdek tushunarli.

Dunyoning deyarli barcha xalqlarida hayvon obrazlari insonlarning turli fe’l-atvorlari, yoki tashqi qiyofasini ko‘rsatib beruvchi etalon sifatida o‘xshatishlardan o‘rin olgan. Xususan “...yomonlik, zararkundalik timsoli ilon, chayon; yaxshilik timsoli bo‘ri; yuvvoshlik timsoli-musicha, qo‘y; ayyorlik timsoli-tulki; qo‘pollik timsoli-ayiq; befahmlik va befarosatlik timsoli-eshak, cho‘chqa; tinchlik timsoli-kaptar; go‘zallik timsoli-tovus; xushxonlik timsoli- bulbuldir. Ammo turli xalqlarda o‘xshatish obektlari o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lish ham mumkin[2]. Yapon hayvonot olami ham juda xilma- xil va rang-barang bo‘lib, ularning nomlari o‘xshatishlardan ham joy olgan. Yapon xalqi o‘z tasavvur va qarashlarini, o‘y-hayollarini shu hayvonlar obraziga joylab o‘xshatish etaloni sifatida qo‘llaydilar. Misol uchun yapon lingvomadaniyatida ham tulki mug‘ombirlik obrazi sifatida gavdalanadi. Xususan Nabuo Sato o‘zining “ritorik ma’no” asarida Montaigoning asaridan havola keltiradi, ya’ni 法王ボニファキオ八世は、狐のようにその地位につき、獅子のようにその職務をおこない、犬のように死んだという “shoh

taxtga tulkidek keldi, she'rdek hukmronlik qildi va itdek o'lim topdi", degan jumlar keltirilgan[3]. Bunga ko'ra hukmdor taxtga hiyla-nayrang ishlatib erishganligi ayon bo'ladi. Bundan tashqari yapon lingvomadaniyatida 狐のような女性 "Tulkidek ayol" o'xshatishi ham mavjud bo'lib, ushbu o'xshatish kunduzi sipo ayol bo'lib, kechasi buzuq ishlar qiladigan ayollarga nisbatan ishlatiladi[4]. Bu tulkining yapon afsonalaridagi uchraydigan o'z tashqi ko'rinishini o'zgartirib turish xususiyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Afsonalarga ko'ra tulki inson qiyofasiga o'ta olgan va o'z hiylalarini amalga oshirgan. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, g'arb va slavyan lingvomadaniyatlarida, xususan, ingliz va rus tillarida as false as fox, хитрый как лиса turg'un o'xshatishlari mifopoetik manbalarga asoslanadi, chunki qadimgi tasavvurlarga ko'ra, tulki jodugar hisoblangan, unda yo'qolish, ko'rinmaydigan bo'lib qolish qobiliyati mavjud bo'lgan[3]. Yapon tilshunosi Matakante " yevropaliklar va ayrim sharq xalqlari biz bilgan tukini boshqacha ko'radilar, ularning tulkilari faqat hayvon qiyofasida shakllanadi, ammo ularning odam ayol qiyofasiga kirib, ular orasida o'z hiylagarliklari bilan yovuzlik urug'ini ekadi. Qizig'i g'arbliliklar tukini boshqa qiyofaga yashirmaydilar" degan fikrlarni aytib o'tgan[5].

Biroq tulki yapon madaniyatida faqat ayyor, hiylagar kabi salbiy obrazlarda emas balki, donolik va topqirlik etaloni sifatida ham uchraydi. 彼女は狐のようないまい人 "kanojouwa kitsune no youni umai hito" ( u (ayol)tulkidek dono kishi) birligida kitsune ( tulki ) o'zbek lingvomadaniyatidagi kabi ayyorlik emas balki donolik, donishmandlikka qiyos qilinyapti[3]. Bundan tashqari u go'zal va jozibali ko'rinishlarda ham gavdalanadi. Yaponlar nazdida eng go'zal yuzli ayollar bu tulkiga o'xshagan ayollardir. Misol tariqasida keltiriladigan bo'lsa, hozirgi zamonaviy yapon ayollari uchun ikki xil yuz jarrohlik amaliyoti o'tkaziladi, ulardan biri esa aynan tulkidek yuz deb nomlanadi. O'z qiyofasini o'zgartirish nafaqat tulkiga balki tanuki (yenot iti deb ham yuritiladi va bo'rsiq emas ) ga xos bo'lib, uning bu "qobiliyati" yapon o'xshatish birliklarida ham o'z aksini topgan. Masalan いやいや、ここではあなた狸でしょういそをつくたから "iyaiya, kokodewa anata tanukidesho, isowo tsukutakara". "Voy-voy, siz bu vaziyatda tanuki kabisiz, yolg'on gapirdingiz. Ayyorlik xarakteriga qaramasdan, tanuki etalonidagi o'xshatishlar ma'no jihatdan tulki bilan bog'liq o'xshatishlarga qaraganda ancha yumshoq. Uning nayranglari mash'um holatda emas, komik tarzda ifodalanadi. Yapon xalq etaklarining birida tanuki bir kampirni aldab, unga yaqin bo'ladi. Keyin uni o'lgunicha kaltaklab, undan eriga kampir sho'rva tayyorlab beradi[6]. Tanuki mug'ombirlik qilib odamlarning ishonchiga kiruvchi obraz qiyofasida gavdalanadi. Shu boisdan ko'p yolg'on gapiruvchi kimsalar bu hayvonga o'xshatiladi. 彼は狸なようににせものです、今日もきませんでした "Karewa tanukinoyouna nisemono desu, Kyoumo

kimasendeshita”(u tanuki kabi aldoqchi ekan. Bugun ham kelmadi)[7]. Biroq, shuncha ayyorlik va yolg‘onchilik harakterlariga qaramay bu hayvon haykali Yaponiyaning ko‘plab restoran va oshxonalari kiraverishidan joy olgan. Chunki u ko‘p afsonalarda katta barabanga o‘xshash qorni bilan ovchilarni chalg‘itishi va odam qiyofasiga kirib, ular bilan birga ziyofat qilishi haqida afsonalar mavjud. Ovqatlanish shaxobchalari tashqarisidagi bu qiyofalar huddi tanuki ruhi kabi ular bilan ichish, ziyofat qilish va ovqatlanib pul sarflashga taklif qiladi[8]. Kun chiqar mamlakat xalqining bu madaniyati o‘xshatishlarida ham o‘z aksini topgan. タヌキみたいはどこかへ行ってぶらぶらしましょう [Tanukino youni dokokani itte buraburashimashou. Kettik qayergadir borib tanuki kabi vaqt o‘tkazamiz[7]. Yapon o‘xshatishlarida ayyorlik etaloni sifatida tanuki ham tulki kabi bir xilda ko‘zga tashlanadi. Shu bilan bir qatorda bu ikkala hayvon ham ijobiy ma’no xususiyatlariga ega.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, barcha xalqlar lingvomadaniyatida o‘ziga xosliklar mavjud bo‘lib, shulardan biri o‘xshatish etalonlari bo‘lib xizmat qiladigan hayvonlardir. Har bir hayvon turli madaniyatlarda o‘ziga xos obrazlarni gavdalantiradi. Xususan yapon tili ham hayvon nomlari etalon bo‘lib kelgan rang-barang o‘xshatishlarga to‘la. Ayyorlikni timsolari bo‘lgan hayvonlar va ularning madaniyatdagi, folkldagi o‘ziga xosliklari til o‘rganuvchilar va tarjimonlar uchun ham qiziq va manfaatlidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

- [1] – Винокур Г. О Избранные работы по русскому языку. – М, 1959 – С.211.
- [2] – – Salomov G’. Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, metal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. – Toshkent. O‘zFA, 1961. B.29.
- [3] – Nabuo Sato Ritorik sensatsiya –Tokio. Kodansha, 1978. – B.73
- [4] – <https://f59aaacafe.ne.jp/walkinon/animalandus.html>
- [5] – Панченко Н. Сравнение как средство дескрипции лжи и обмана // Основное высшее и дополнительное образование: проблемы дидактики и лингвистики. –Волгоград: ВГТУ, 2000. – С. 138-143.
- [6] – Nabuo Sato. Ritorik sensatsiya –Tokio. Kodansha, 1978. – B.73
- [7]–Nakamura A. Hiyu hyougen jiten (Metaphorical expression dictionary). –Tokio, Kadokawa shoten, 1995. – B.87
- [8] – Hogetsu Shimamura chokuyu no yuraku – Tokio: Meydzi Shoin, 2015 – B.

